

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

ABDIKARIMOV FAXRIDDIN BAXROM O'G'LI

**MOSLANGAN MANBALI BUTUN VA KASR TARTIBLI XUSUSIY
HOSILALI NOCHIZIQLI EVOLYUTSION TENGLAMALARNI
INTEGRALLASH**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on physical and mathematical sciences**

Abdikarimov Faxriddin Baxrom o'g'li

Moslangan manbali butun va kasr tartibli xususiy hosilali nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallash.....3

Abdikarimov Faxriddin Baxrom ugli

Integration of integer and fractional order nonlinear evolution equations with self-consistent sources.....29

Абдикаримов Фахриддин Бахром угли

Интегрирование нелинейных эволюционных уравнений с частными производными целых и дробным порядком с самосогласованным источником53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works57

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

ABDIKARIMOV FAXRIDDIN BAXROM O'G'LI

**MOSLANGAN MANBALI BUTUN VA KASR TARTIBLI XUSUSIY
HOSILALI NOCHIZIQLI EVOLYUTSION TENGLAMALARNI
INTEGRALLASH**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1052 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Xorazm Ma'mun akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-mat.urdu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Babajanov Bazar Atajanovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar

Hasanov Aknazar Bekdurdiyevich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Babadjanova Aygul Komiljanovna

fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.FM.06.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "_____" soat _____:_____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H. Alimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-66-11, faks: (+99862) 224-67-00, e-mail: info@urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H. Alimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-66-11, faks: (+99862) 224-67-00, e-mail: arm@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "_____" kuni tarqatildi.

(2026 yil "_____" dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B. I. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

A. A. Reyimberganov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n

B. A. Babajanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda zamonaviy matematikaning muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan nochiziqli evolyutsion tenglamalarni tadqiq qilishga keltiriladi. Hozirgi kunda anomal diffuziya va fraksional dispersiya hodisalari ko‘plab fizik va texnologik jarayonlarda kuzatilayotgani sababli, moslangan manbali butun va kasr tartibli xususiy hosilali nochiziqli evolyutsion tenglamalarni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham nihoyatda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalish fundamental matematika, kompyuter simulyatsiyasi va eksperimental fizika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlab, yangi turdagi solitonlar, dispersiv effektlar va integrallanuvchi tenglamalar sinfini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari bu masalalardan plazma fizikasi, optika, gidrodinamika, biotibbiyot, geofizika, anomal issiqlik tarqalishi, bozor modellaridagi inertsiya effektlari kabi ko‘plab sohalarni tadqiq qilishda foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda manbali nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallash bo‘yicha dunyo miqyosida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Odatda, manbasiz tenglamalar ideal sharoitlarda chiqarilgan model tenglamalar bo‘lib, tabiiy jarayonlarda yuzaga keladigan qo‘shimcha ta’sirlarni hisobga olish zarurati mavjud hisoblanadi. Bunday hollarda nochiziqli evolyutsion tenglamalarni o‘rganishda o‘zgaruvchan koeffitsiyentli va moslangan manbali tenglamalarni kiritish talab etiladi. Shu sababli, ushbu jarayonlarning matematik modellari sifatida o‘zgaruvchan koeffitsiyentli va moslangan manbali nochiziqli evolyutsion tenglamalar qaraladi. Xususan, o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasi va qo‘shimcha hadli kasr tartibli hosilali Kortevge-de Friz va modifitsirlangan Kortevge-de Friz tenglamalarini funksional o‘zgaruvchilar usuli yordamida tatqiq etish, Riss kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Kortevge-de Friz-sinus-Gordon tenglamasini sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash, o‘zgaruvchan koeffitsiyentli va moslangan manbali umumiy Kaup-Boussinesq tenglamasini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallash masalalariga jahon miqyosida alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda kasr tartibli va moslangan manbali nochiziqli evolyutsion tenglamalarning yechimlarini Zaxarov-Shabat sistemasi va Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun qo‘yilgan sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usullari yordamida aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalari usullaridan foydalanib Riss kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Kortevge-de Friz va umumiy Kaup-Boussinesq tenglamalarining soliton yechimlarini qurish bo‘yicha muhim natijalarga erishildi. Differensial tenglamalar, matematik fizika va funksional analiz fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va

faoliyat yo‘nalishlari qilib belgilangan¹. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan zamonaviy matematik fizikaning nohiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallashda sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalari usulini qo‘llab, tez kamayuvchi funksiyalar sinfida Riss kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz-sinus-Gordon tenglamasini Zaxarov-Shabat sistemasi uchun qo‘yilgan sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida, shuningdek o‘zgaruvchan koeffitsiyentli va moslangan manbali umumiy Kaup-Boussinesq tenglamasini Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun uchun qo‘yilgan sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-sonli “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda ushbu faoliyat sohasiga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya ishidagi izlanish va tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasida fan va texnika taraqqiyotining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq olib borildi.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. O‘zgarmas koeffitsiyentli nohiziqli evolyutsion tenglamalarning funksional o‘zgaruvchilar usuli yordamida davriy va soliton yechimlarini topish ilk bor 2010-yilda V. Djoudi va A. Zerarka tomonidan kiritilgan bo‘lib, keyinchalik Li va He tomonidan bu usul kasr tartibli differensial tenglamalarning davriy va soliton yechimlarini topishda qo‘llanilgan. 2016-yilda V. Djoudi va A. Zerarka ushbu usulni rivojlantirib, o‘zgaruvchan koeffitsiyentli Korteveg-de Friz tenglamasi va modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamalarining davriy va soliton yechimlarini funksional o‘zgaruvchilar usuli yordamida qurishga muvaffaq bo‘ldilar. Funksional o‘zgaruvchilar usulining boshqa usullardan asosiy ustunligi shundaki, bu usul yordamida parametrlarga aniq qiymat berish orqali ko‘proq yangi yechimlarni olish mumkin.

So‘nggi yillarda butun va kasr tartibli nohiziqli evolyutsion tenglamalarni sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, butun tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz-sinus-Gordon tenglamasi ilk bor 1974-yilda K.

¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil, 18-maydagi 292-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

Konno tomonidan atom panjarasidagi nochiziqli tebranish hodisalarini ifodalovchi matematik model sifatida kiritilgan va sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalar usuli yordamida to'la integrallanuvchanligi ko'rsatilgan. Keyinchalik, bu tenglama H. Leblond va D. Mihalache tomonidan shaffof muhitlarda qisqa optik impulslarning tarqalishini tasvirlashda qo'llanilgan. Shuningdek, bu tenglamaning davriy cheksiz zonali yechimlari A. Hasanov tomonidan, tez kamayuvchi funksiyalar sinfidagi yechimlari esa U. Hoitmetov tomonidan o'rganilgan.

2022-yilda Amerikalik olimlar Ablovitz, Been va Carrlar Riss kasr tartibli nochiziqli Korteveg-de Friz tenglamasini sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash mumkinligini ko'rsatdilar va bu usulni Riss kasr tartibli nochiziqli Shrodinger tenglamasi, Riss kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasi, Riss kasr tartibli hosilali sinus-Gordon tenglamasi integrallashga qo'lladilar. Ular tomonidan taklif etilgan bu usul hozirgi kunda ko'plab kasr tartibli hosilali nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallashga tadbiiq etilmoqda. Jumladan, xitoylik olimlar V. Weng, M. Zhang va Z. Yanlar tomonidan bu usul yordamida Riss kasr tartibli hosilali nochiziqli Shrodinger tenglamasining umumlashmalari integrallangan va N-soliton yechimlarining dinamikasi o'rganilgan. L. An, L. Ling va H. Zhang esa Riss kasr tartibli hosilali nochiziqli hosilali Shrodinger tenglamasi va Riss kasr tartibli Hirota tenglamasining soliton yechimlarini olganlar. SH. Zhang, H. Li va B. Xu esa Riss kasr tartibli hosilali o'zgaruvchan koeffitsiyentli Korteveg-de Friz va nochiziqli Shrodinger tenglamasini sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash mumkinligini ko'rsatganlar.

Shturm-Liuvill operatorining kvadratik dastasi uchun sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalar usuli yordamida D. J. Kaup sayoz suvda to'lqin tarqalishini tasvirlovchi Kaup-Boussinesq tenglamasini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida to'liq integrallanishini ko'rsatgan. Keyinchalik, M. Jaulent va I. Miodek Kaup-Boussinesq tenglamasi va uning yuqori tartibli analoglari uchun Koshi masalasini yechish algoritmini ishlab chiqdilar. V. B. Matveev va M. I. Yavor Kaup-Boussinesq tenglamasini chegaralangan zona tipidagi boshlang'ich shartlar bilan o'rgangan bo'lib, murakkab ko'p zonali yechimlarini topganlar va ularning assimptotik xossalarini tahlil qildilar. Kaup-Boussinesq tenglamasining haqiqiy ko'p zona yechimlari A. O. Smirnov ishlarida tadqiq qilingan.

Bundan tashqari, A. Cabada va A. Yakshimuratov davriy funksiyalar sinfida moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamasini integrallab, yechimlarning davriylik xususiyatlari va o'zgaruvchilarga nisbatan analitikligini aniqlash bo'yicha muhim natijalarni oldilar. Shuningdek, B.A. Babajanov va A.Sh. Azamatovlar moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamasining integrallanuvchanligini Shturm-Liuvill tenglamalarining kvadratik dastasi uchun sochilish nazariyasining teskari masalalari usuli yordamida asoslab berganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya ishi Xorazm Ma'mun akademiyasi "Aniq fanlar" bo'limining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Differensial operatorlar spektral nazariyasining nochiziqli

evolyutsion tenglamalarga tadbiqlari” nomli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi (2022-2025 yillar) asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi funksional o‘zgaruvchilar usuli yordamida qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasini, qo‘shimcha hadli kasr tartibli hosilali Korteveg-de Friz tenglamasini va kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasining soliton va davriy yechimlarini topish, Riss kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz-sinus-Gordon tenglamasini sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida tadqiq etish va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli va moslangan manbali umumiy Kaup-Boussinesq tenglamasini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasini, qo‘shimcha hadli kasr tartibli hosilali Korteveg-de Friz tenglamasi va kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasini funksional o‘zgaruvchilar usuli yordamida soliton yechimlarini topish;

Riss kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz-sinus-Gordon tenglamasini Zaxarov-Shabat sistemasi uchun qo‘yilgan sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash;

o‘zgaruvchan koeffitsiyentli va moslangan manbali umumiy Kaup-Boussinesq tenglamasini Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun uchun qo‘yilgan sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash.

Tadqiqot obyekti: qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasi, qo‘shimcha hadli kasr tartibli hosilali Korteveg-de Friz tenglamasi va kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasi, Riss kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz-sinus-Gordon tenglamasi, o‘zgaruvchan koeffitsiyentli va moslangan manbali umumiy Kaup-Boussinesq tenglamasi.

Tadqiqot predmeti Zaxarov-Shabat sistemasi va Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usulini butun va kasr tartibli hosilali nochiqli evolyutsion tenglamalarni integrallash jarayoniga tatbiq etishdan iborat. Bundan tashqari, qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli bir qator nochiziqli evolyutsion tenglamalar uchun aniq analitik yechimlarni olish maqsadida funksional o‘zgaruvchi usulining qo‘llanilishi ham o‘rganilgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik analiz, oddiy va xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi, matematik fizika tenglamalari, funksional analiz, kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi hamda differensial operatorlarning spektral nazariyasi kabi zamonaviy matematik metod va yondashuvlar qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

funksional o‘zgaruvchilar usuli yordamida qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasi, qo‘shimcha hadli kasr tartibli hosilali Korteveg-de Friz tenglamasi va kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasining soliton va davriy yechimlari topilgan;

Riss kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz-sinus-Gordon tenglamasi Zaxarov-Shabat sistemasi uchun qo'yilgan sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalar usulini yordamida tez kamayuvchi funktsiyalar sinfidagi integrallanuvchanligi isbotlangan;

o'zgaruvchan koeffitsiyentli va moslangan manbali umumiy Kaup-Boussinesq tenglamasi Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun qo'yilgan sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalar usuli yordamida tez kamayuvchi funktsiyalar sinfidagi integrallanuvchanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari: funksional o'zgaruvchilar usuli yordamida qo'shimcha hadli va o'zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasi, qo'shimcha hadli kasr tartibli hosilali Korteveg-de Friz tenglamasi va kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasining soliton va davriy yechimlari topilgan. Ushbu yechimlar muhitlardagi dispersiv o'zaro ta'sirlarni chuqur yoritib beradi va ular turbulentslik, gaz dinamikasi hamda noxiziqli diffuziya modellarida to'g'ridan-to'g'ri qo'llanishi mumkin.

Riss kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz-sinus-Gordon tenglamasi Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalar usulini yordamida integrallash algoritmi ishlab chiqilgan. Ushbu natijalar kasr tartibli hosilali noxiziqli to'lqin jarayonlarini tahlil qilish uchun samarali hisoblanadi.

O'zgaruvchan koeffitsiyentli va moslangan manbali umumiy Kaup-Boussinesq tenglamasi Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash algoritmi qurilgan va vaqt bo'yicha evolyutsiyasini ifodalovchi aniq formulalar olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi: qo'yilgan vazifalarni o'rganishda matematik fizika tenglamalari, funksional tahlil va kompleks o'zgaruvchili funktsiyalar nazariyasi, shuningdek Zaxarov-Shabat sistemasining spektral xususiyatlari va Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun sochilish nazariyasining teskari masalalar usuli kabi zamonaviy analitik usullardan foydalanilganligi bilan ta'minlanadi. Barcha teoremlar va natijalar qat'iy matematik asoslash, aniq isbotlar, spektral tahlilning fundamental prinsiplariga tayanilgan holda chiqarilgan bo'lib, ularning to'g'riligi tekshirilib, klassik natijalar bilan solishtirish asosida tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu dissertatsiyada olingan asosiy natijalar chiziqli operatorlarning spektral nazariyasi doirasida, shuningdek qattiq jismlar fizikasi, ion akustikasi, plazma fizikasi, radiofizika va kvant fizikasidagi turli masalalarni tahlil qilishda qo'llanishi mumkin va ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar va analitik usullarni matematik fizikaning moslangan manbali noxiziqli evolyutsion tenglamalarini integrallash jarayonida qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Moslangan manbali butun va kasr tartibli hosilali xususiy hosilali noxiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallash bo'yicha olingan natijalar asosida:

Qo'shimcha hadli va o'zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasining soliton yechimlari va kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz-sinus-Gordon tenglamasini Zaxarov-Shabat sistemasiga qo'yilgan sochilish

nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash orqali olingan bir solitonli yechimlarning xossalari Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filialida fizika-matematika fanlari doktori A.B. Yaxshimuratov rahbarligida 2022-2023 yillar davomida bajarilgan AL-42101210 - “Aqlli shahar sensori infratuzilmasining monitoring tizimi” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining ma‘lumotnomasi, O‘zbekiston, 2025-yil 5-noyabr). Kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Kortevge-de Friz-sinus-Gordon tenglamasini Zaxarov-Shabat sistemasiga qo‘yilgan sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash orqali olingan bir solitonli yechimlarning xossalari signallarning xususiyatlarini o‘zgartirmasdan uzatishda qo‘llanilgan. Shuningdek, o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasining soliton yechimlari sensor tarmoqlarida shovqin kuchayishi va signal buzilishini kamaytirish hamda signal amplitudasi va uzatish tezligini samarali boshqarishda qo‘llanilgan. Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi binolarda yong‘in mavjudligini baholashda zarur bo‘lgan dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish hamda ma‘lumotlarni uzatish tarmog‘idagi yukni kamaytirish imkonini bergan.

Umumiy Kaup-Boussinesq tenglamasini sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash orqali olingan ilmiy natijalari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida A.E. Atamuratov rahbarligida 2021-2023 yillar davomida bajarilgan Uzb-Ind-2021-80 raqamli “Zatvor bilan o‘ralgan tartiblangan nanoplastinkalar asosidagi MOYA tranzistorda o‘z-o‘zidan qizish effektini o‘rganish” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining ma‘lumotnomasi, O‘zbekiston, 2025-yil 5-noyabr). Kaup-Boussinesq sistemasini sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash orqali olingan ilmiy natijalari nanoplastinkali MOYA tranzistor kanali markazida yuzaga keladigan maksimal haroratni nazariy asoslash, tranzistordagi lokal issiqlik to‘planish mexanizmini matematik jihatdan tavsiflash, shuningdek, issiqlik oqimi, oqim zichligi, I_{on}/I_{off} nisbati va konstruktiv-geometrik parametrlar o‘rtasidagi modellashtirish algoritmlarini ishlab chiqishda qo‘llanilgan. Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi tranzistorning ichki faol sohalarida o‘z-o‘zidan qizish jarayonining boshlanishi va rivojlanishini matematik asoslangan holda tushuntirish, lokal issiqlik to‘planishini oldindan baholash, konstruktiv-geometrik parametrlar bilan issiqlik tarqalish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, shuningdek, tranzistorlarning barqaror ishlashi uchun optimal struktura parametrlarini tanlashni ta‘minlovchi hisoblash va simulyatsiya usullarini ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, shu jumladan 6 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida 14 ta ilmiy ish chop qilingan bo‘lib, dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shu jumladan 6 tasi xorijiy va 1 tasi respublika jurnallarida chop qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob‘yekti, predmeti va usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Butun va kasr tartibli hosilali nochiziqli evolyutsion tenglamalarning soliton va davriy to‘lqin yechimlarini funksional o‘zgaruvchilar usuli yordamida topish”** deb nomlangan birinchi bobida, qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasi, qo‘shimcha hadli kasr tartibli hosilali Kortevog-de Friz tenglamasi va kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Kortevog-de Friz tenglamasining soliton va davriy yechimlari topilgan.

Bu bobning birinchi paragrafida funksional o‘zgaruvchilar usulining matematik mohiyati, uning qo‘llanish shartlari, bazaviy tushunchalari va yechimlarni qurishdagi afzalliklari batafsil tushuntirilgan.

Bu bobning ikkinchi paragrafida qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasini funksional o‘zgaruvchilar usuli yordamida yechimlari topilgan.

Bu bobning uchinchi paragrafida qo‘shimcha hadli kasr tartibli hosilali Kortevog-de Friz tenglamasi va kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Kortevog-de Friz tenglamalarining soliton va davriy to‘lqin yechimlari qurilgan. Shuningdek, funksional o‘zgaruvchilar usulining kasr tartibli hosilali modellar uchun qanchalik samarali ishlashi nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Quyidagi nochiziqli differensial tenglamani qaraymiz.

$$P(u, u_t, u_x, u_y, u_z, u_{xy}, u_{yz}, u_{xz}, \dots) = 0, \quad (1)$$

1-qadam. Nochiziqli xususiy hosilali tenglamani oddiy differensial tenglamaga keltirish maqsadida quyidagi chiziqli almashtirishni kiritamiz:

$$\xi = \sum_{i=0}^p \alpha_i \chi_i + \delta, \quad (2)$$

bu yerda χ_i erkli o‘zgaruvchilar. Agar $p=1$ bo‘lsa, u holda $\xi = \alpha_0 \chi_0 + \alpha_1 \chi_1 + \delta$ ko‘rinishga ega bo‘ladi. α_0 va α_1 o‘zgarimas sonlar bo‘lib, ular to‘lqin pulsatsiyasi sifatida talqin qilinadi, χ_0 va χ_1 esa mos ravishda vaqt t va fazoviy koordinata x o‘zgaruvchilarini bildiradi.

(1) tenglamaning yechimlarini izlashda quyidagi almashtirishni kiritamiz:

$$u(\chi_0, \chi_1, \dots) = u(\xi),$$

va zanjir qoidasiga binoan quyidagi tengliklar o‘rinli bo‘ladi:

$$\frac{\partial u}{\partial \chi_i} = \alpha_i \frac{du}{d\xi}, \quad \frac{\partial^2 u}{\partial \chi_i \partial \chi_j} = \alpha_i \alpha_j \frac{d^2 u}{d\xi^2}, \quad \dots, \quad (3)$$

(2) va (3) almashtirishlardan foydalanib (1) nochiqli xususiy hosilali differensial tenglama oddiy differensial tenglamaga keltiriladi. Natijada quyidagi ko‘rinishdagi tenglama hosil bo‘ladi:

$$Q(u, u', u'', u''', \dots) = 0, \quad (4)$$

bu yerda Q funksional u noma'lum funksiya va uning ξ bo'yicha hosilalariga bog'liq va $u' = \frac{du}{d\xi}$.

2-qadam. Keyingi soddalashtirish bosqichida maxsus funksional almashtirish kiritiladi:

$$u' = F(u), \quad (5)$$

Kiritilgan funksional almashtirish natijasida yechim quyidagi integral munosabat orqali aniqlanadi:

$$\int \frac{du}{F(u)} = \xi + C,$$

bu yerda C integrallash doimiysi bo'lib, qulaylik uchun odatda $C=0$ deb olinadi. Mazkur bosqich funksional o'zgaruvchilar usulining asosiy g'oyasini tashkil etadi. u noma'lum funksiyaning ξ bo'yicha yuqori tartibli hosilalarini $F(u)$ yordamida ifodalash uchun (5) funksional almashtirishdan foydalanib, u funksiyaning yuqori tartibli hosilalari hisoblanadi:

$$\begin{aligned} u'' &= \frac{dF(u)}{du} \frac{du}{d\xi} = \frac{dF(u)}{du} F(u) = \frac{1}{2} \frac{d(F^2(u))}{du}, \\ u''' &= \frac{1}{2} \frac{d^2(F^2(u))}{du^2} \sqrt{F^2(u)}, \\ u^{(IV)} &= \frac{1}{2} \left[\frac{d^3(F^2(u))}{du^3} F^2(u) + \frac{d^2(F^2(u))}{du^2} \frac{d(F^2(u))}{du} \right], \end{aligned} \quad (6)$$

.....

3-qadam. (4) oddiy differensial tenglamani u , $F(u)$ va uning hosilalari orqali ifodalash uchun (5) va (6) tengliklardan foydalanamiz. Ushbu ifodalarni (4) ga qo'yish natijasida tenglama quyidagi ko‘rinishga keltiriladi:

$$R\left(u, \frac{dF(u)}{du}, \frac{d^2 F(u)}{du^2}, \frac{d^3 F(u)}{du^3}, \dots\right) = 0. \quad (7)$$

(7) tenglamani integrallash natijasida $F(u)$ funksiyasining aniq ifodasi olinadi va (5) tenglama bilan birgalikda qarab, qaralayotgan masalaning yechimlari hosil qilinadi.

Bu bobning ikkinchi paragrafida qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasini funksional o‘zgaruvchilar usuli yordamida aniq yechimlari topilgan. Taklif qilinayotgan usulning boshqa usullarga

nisbatan asosiy ustunligi shundaki, bu usul yordamida tenglamaning yanada ko‘proq yangi yechimlarni olish mumkin.

Quyidagi qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasini qaraymiz

$$u_t + h_1(t)u^2u_x - h_2(t)u_{xx} + \omega(t)u_x = 0, \quad (8)$$

bu yerda $u(x,t)$ noma'lum funksiya, $x \in \mathbb{R}$, $t \geq 0$, $h_1(t) \neq 0$, $h_2(t) \neq 0$ va $\omega(t) \neq 0$ berilgan uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalar va $h_2(t) > 0$ suyuqlikning kinematik qovushqoqlik koeffitsiyentini ifodalaydi.

1-teorema. Faraz qilaylik $h_1(t) \neq 0$, $h_2(t) \neq 0$ va $\omega(t) \neq 0$ funksiyalar uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalar bo‘lib, ular quyidagi tenglikni qanoatlantirsin:

$$h_2(t) = \frac{C_4^2}{3\mu C_2} \cdot \frac{h_1(t)}{\left(\int_0^t h_1(\tau) d\tau + C_3 \right)^{4C_2}}.$$

U holda, (8) qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasining yechimi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$u_1(x,t) = \frac{1}{\int_0^t h_1(\tau) d\tau + C_3} + \frac{C_4}{\left(\int_0^t h_1(\tau) d\tau + C_3 \right)^{2C_2}} \text{sh}(\text{archth}(e^{H_1(x,t)})),$$

bu yerda $H_1(x,t) = \int_0^t (\lambda C_2^2 h_2(\tau) - C_2 \omega(\tau)) d\tau + C_1 + C_2 x$, λ , μ , C_1 , C_2 , va C_3 noldan farqli o‘zgarmas sonlar.

2-teorema. Faraz qilaylik $h_1(t) \neq 0$, $h_2(t) \neq 0$ va $\omega(t) \neq 0$ funksiyalar uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalar bo‘lib, ular quyidagi tenglikni qanoatlantirsin:

$$h_2(t) = k h_1(t), \quad k = \text{const}.$$

U holda, (8) qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasining yechimi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$u_2(x,t) = S_3 \text{sh}(\text{archth}(e^{H_2(x,t)})).$$

bu yerda $H_2(x,t) = \int_0^t (\lambda S_2^2 h_2(\tau) - S_2 \omega(\tau)) d\tau + S_1 + S_2 x$, λ , S_1 , S_2 , va S_3 noldan farqli o‘zgarmas sonlar.

1-misol. 1-teoremaning qo‘llanilishini quyidagi misol yordamida ko‘rib chiqamiz. Agar $h_1(t) = 2t$, $h_2(t) = \frac{t}{t^2 + 1}$, $\omega(t) = -8t$, $\lambda = 32$ va $\mu = \frac{8}{3}$ bo‘lsa, u holda (8) qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasining yechimi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$u_1(x,t) = \frac{1}{t^2 + 1} + \frac{1}{\sqrt{t^2 + 1}} \text{sh}(\text{archth}((t^2 + 1)e^{t^2 + \frac{1}{4}x})).$$

2-misol. 2-teoremaning qo‘llanilishini quyidagi misol yordamida ko‘rib chiqamiz. Agar $h_1(t) = t$, $h_2(t) = t$, $\omega(t) = t$, $\lambda = 1$ va $\mu = 1$ bo‘lsa, u holda (8)

qo‘shimcha hadli va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli modifitsirlangan Burgers tenglamasining yechimi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$u_2(x,t) = 3\text{sh}(\text{archth}(e^{3(t^2+x)})).$$

Bu bobning uchinchi paragrafida qo‘shimcha hadli kasr tartibli hosilali Korteveg-de Friz tenglamasi va kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamalarining soliton va davriy to‘lqin yechimlari funksional o‘zgaruvchilar usuli yordamida topilgan.

Qo‘shimcha hadli kasr tartibli hosilali Korteveg-de Friz tenglamasi va kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasini qaraymiz:

$$D_t^\alpha u - 6puD_x^\beta u + D_x^{3\beta} u + \gamma_1 D_x^\beta u = 0, \quad (9)$$

$$D_t^\alpha u - 12pu^2 D_x^\beta u + D_x^{3\beta} u + \gamma_2 D_x^\beta u = 0, \quad (10)$$

bu yerda $u(x,t)$ noma‘lum funksiya, $x \in \mathbb{R}$, $t \geq 0$, $p \neq 0$, $\gamma_1 \neq 0$ va $\gamma_2 \neq 0$ o‘zgarvas sonlar. $0 < \alpha < 1$ va $0 < \beta < 1$ esa Riman-Liuivill kasr tartibli hosila.

1-ta‘rif. Agar $u(x)$ funksiya $(a,b) \subseteq \mathbb{R}$ oraliqda aniqlangan silliq funksiya bo‘lsa, u holda $u(x)$ funksiyaning ϵ tartibli chap va o‘ng Riman-Liuivill kasr tartibli hosilalari quyidagi tengliklar bilan aniqlanadi:

$${}_{RL}D_{a,x}^\epsilon u(x) = \frac{1}{\Gamma(1-\epsilon)} \frac{d}{dx} \int_a^x \frac{u(\xi)}{(x-\xi)^\epsilon} d\xi, \quad 0 < \epsilon < 1,$$

$${}_{RL}D_{x,b}^\epsilon u(x) = -\frac{1}{\Gamma(1-\epsilon)} \frac{d}{dx} \int_x^b \frac{u(\xi)}{(x-\xi)^\epsilon} d\xi, \quad 0 < \epsilon < 1.$$

Quyidagi nochiziqli kasr tartibli hosilali differensial tenglamani qaraymiz

$$F(u, D_t^\alpha u, D_x^\beta u, D_t^\alpha D_t^\alpha u, D_x^\beta D_x^\beta u, D_t^\alpha D_x^\beta u, \dots) = 0, \quad (11)$$

bu yerda $0 < \alpha < 1$, $0 < \beta < 1$, F funksional esa $u(x,t)$ funksiya va uning kasr tartibli hosilalariga bog‘liq.

1-qadam. (11) nochiziqli kasr tartibli hosilali differensial tenglamani oddiy differensial tenglamaga keltirish maqsadida quyidagi almashtirishni kiritamiz:

$$u(x,t) = u(\xi), \quad \xi = \frac{cx^\beta}{\Gamma(1+\beta)} - \frac{kt^\alpha}{\Gamma(1+\alpha)}, \quad (12)$$

bu yerda c va k noldan farqli ixtiyoriy o‘zgarvas sonlar, k esa to‘lqinning tarqalish tezligi.

(12) dan foydalanib, (11) nochiziqli kasr tartibli hosilali tenglama quyidagi oddiy differensial tenglamaga keltiriladi:

$$P(u, u', u'', u''', \dots) = 0, \quad (13)$$

bu yerda $u' = \frac{du}{d\xi}$

2-qadam. Noma‘lum funksiyaning hosilasini ifodalovchi maxsus funksional almashtirish kiritamiz.

$$u' = F(u), \quad (14)$$

Mazkur qadam funksional o‘zgaruvchilar usulining asosiy g‘oyasini tashkil etadi. u noma‘lum funksiyaning ξ bo‘yicha yuqori tartibli hosilalarini $F(u)$ yordamida

ifodalash uchun (14) funksional almashtirishdan foydalanib, u funksiyaning yuqori tartibli hosilalari hisoblanadi:

$$\begin{aligned} u'' &= \frac{dF(u)}{du} \frac{du}{d\xi} = \frac{dF(u)}{du} F(u) = \frac{1}{2} \frac{d(F^2(u))}{du}, \\ u''' &= \frac{1}{2} \frac{d^2(F^2(u))}{du^2} \sqrt{F^2(u)}, \\ u^{(iv)} &= \frac{1}{2} \left[\frac{d^3(F^2(u))}{du^3} F^2(u) + \frac{d^2(F^2(u))}{du^2} \frac{d(F^2(u))}{du} \right], \end{aligned} \quad (15)$$

3-qadam. (13) oddiy differensial tenglamani u , $F(u)$ va uning hosilalari orqali ifodalash uchun (14) va (15) tengliklardan foydalanamiz. Ushbu ifodalarni (13) ga qo'yish natijasida tenglama quyidagi ko'rinishga keltiriladi:

$$H\left(u, \frac{dF(u)}{du}, \frac{d^2F(u)}{du^2}, \frac{d^3F(u)}{du^3}, \dots\right) = 0. \quad (16)$$

(16) tenglamani integrallash natijasida $F(u)$ funksiyasining aniq ifodasi olinadi. Olingan bu funksiya (14) tenglama bilan birgalikda qarab, qaralayotgan masalaning yechimlarini hosil qilish imkonini beradi.

3-teorema. Aytaylik $c \neq 0$, $k \neq 0$, $p \neq 0$ va γ_1 haqiqiy o'zgarmas sonlar bo'lsin.

Agar $\frac{\gamma_1 c - k}{c} < 0$ bo'lsa, u holda (9) qo'shimcha hadli kasr tartibli hosilali Korteveg-de

Vries tenglamasi quyidagi soliton yechimga ega bo'ladi:

$$u(x,t) = \frac{\gamma_1 c - k}{2cp} \cdot \frac{1}{\operatorname{ch}^2\left(\frac{1}{2c} \sqrt{\frac{k - \gamma_1 c}{c}} \left(\frac{cx^\beta}{\Gamma(1+\beta)} - \frac{kt^\alpha}{\Gamma(1+\alpha)}\right)\right)}.$$

Agar $\frac{\gamma_1 c - k}{c} > 0$ bo'lsa, u holda (9) qo'shimcha hadli kasr tartibli hosilali Korteveg-de

Vries tenglamasi quyidagi davriy yechimga ega bo'ladi:

$$u(x,t) = \frac{\gamma_1 c - k}{2cp} \cdot \frac{1}{\cos^2\left(\frac{1}{2c} \sqrt{\frac{\gamma_1 c - k}{c}} \left(\frac{cx^\beta}{\Gamma(1+\beta)} - \frac{kt^\alpha}{\Gamma(1+\alpha)}\right)\right)}.$$

4-teorema. Aytaylik $c \neq 0$, $k \neq 0$, $p > 0$ va γ_2 haqiqiy o'zgarmas sonlar bo'lsin.

Agar $\frac{\gamma_2 c - k}{c} < 0$ bo'lsa, u holda (10) qo'shimcha hadli kasr tartibli hosilali

modifitsirlangan Korteveg-de Vries tenglamasi quyidagi soliton yechimga ega bo'ladi:

$$u(x,t) = \sqrt{\frac{k - \gamma_2 c}{2pc}} \cdot \frac{1}{\operatorname{ch}\left(\frac{1}{c} \sqrt{\frac{k - \gamma_2 c}{c}} \left(\frac{cx^\beta}{\Gamma(1+\beta)} - \frac{kt^\alpha}{\Gamma(1+\alpha)}\right)\right)}.$$

Agar $\frac{\gamma_2 c - k}{c} > 0$ bo'lsa, u holda (10) qo'shimcha hadli kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Vries tenglamasi quyidagi davriy yechimga ega bo'ladi:

$$u(x,t) = \sqrt{\frac{\gamma_2 c - k}{2pc}} \cdot \frac{1}{\cos\left(\frac{1}{c} \sqrt{\frac{\gamma_2 c - k}{c}} \left(\frac{cx^\beta}{\Gamma(1+\beta)} - \frac{kt^\alpha}{\Gamma(1+\alpha)}\right)\right)}.$$

3-misol. 3-teoremaning qo'llanilishini quyidagi misol yordamida ko'rib chiqamiz. Agar $k = -2$, $\alpha = 0.5$, $\beta = 0.5$, $\gamma_1 = 1$, $p = 0.5$ va $c = -1$ bo'lsa, u holda (9) qo'shimcha hadli kasr tartibli hosilali Korteveg-de Vries tenglamasi quyidagi soliton yechimga ega bo'ladi:

$$u(x,t) = -\frac{1}{\operatorname{ch}^2\left(\frac{\sqrt{2}}{\sqrt{\pi}}(\sqrt{x} - 2\sqrt{t})\right)}.$$

Agar $k = -1$, $\alpha = 0.5$, $\beta = 0.5$, $\gamma_1 = 1$, $p = 1$ va $c = 1$ bo'lsa, u holda (9) qo'shimcha hadli kasr tartibli hosilali Korteveg-de Vries tenglamasi quyidagi davriy yechimga ega bo'ladi:

$$u(x,t) = \frac{1}{\cos^2\left(\frac{\sqrt{2}}{\sqrt{\pi}}(\sqrt{x} + \sqrt{t})\right)}.$$

4-misol. 4-teoremaning qo'llanilishini quyidagi misol yordamida ko'rib chiqamiz. Agar $k = -2$, $\alpha = 0.5$, $\beta = 0.5$, $\gamma_2 = 1$, $p = 0.5$ va $c = -1$ bo'lsa, u holda (9) qo'shimcha hadli kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Vries tenglamasi quyidagi soliton yechimga ega bo'ladi:

$$u(x,t) = \frac{1}{\operatorname{ch}\left(\frac{\sqrt{2}}{\sqrt{\pi}}(\sqrt{x} - 2\sqrt{t})\right)}.$$

Agar $k = -1$, $\alpha = 0.5$, $\beta = 0.5$, $\gamma_2 = 1$, $p = 1$ va $c = 1$ bo'lsa, u holda (9) qo'shimcha hadli kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Vries tenglamasi quyidagi davriy yechimga ega bo'ladi:

$$u(x,t) = \frac{1}{\cos\left(\frac{2\sqrt{2}}{\sqrt{\pi}}(\sqrt{x} + \sqrt{t})\right)}.$$

Dissertatsiyaning “**Kasr tartibli hosilali hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz-sinus-Gordon tenglamasini sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalar usuli yordamida integrallash**” deb nomlangan ikkinchi bobida, kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz-sinus-Gordon tenglamasini Zaxarov-Shabat sistemasi uchun qo'yilgan sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalalar usuli yordamida tez kamayuvchi funksiyalar sinfiga integrallash algoritmlari ishlab chiqilgan.

Bu bobning birinchi paragrafi Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalar usuli haqida zaruriy tushunchalarni taqdim etishdan boshlangan. Ushbu nazariy asoslar bobning keyingi bo‘limlarida bajariladigan integrallash jarayoni uchun tayanch vazifasini bajaradi.

Ushbu

$$\begin{cases} v_x^{(1)} = -ikv^{(1)} + q(x,t)v^{(2)}, \\ v_x^{(2)} = ikv^{(2)} + r(x,t)v^{(1)}, \end{cases} \quad (16)$$

Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalari haqidagi zaruriy ma’lumotlarni keltiramiz

2-ta’rif. (16) Zaxarov-Shabat sistemasining ushbu

$$\begin{aligned} \phi(x,k,t)e^{ikx} &\sim \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix}, \quad \bar{\phi}(x,k,t)e^{-ikx} \sim \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix}, \quad x \rightarrow -\infty, \\ \psi(x,k,t)e^{-ikx} &\sim \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix}, \quad \bar{\psi}(x,k,t)e^{ikx} \sim \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix}, \quad x \rightarrow +\infty, \end{aligned}$$

asimtotikalarni qanoatlantiruvchi yechimlarini $\phi(x,k,t)$, $\bar{\phi}(x,k,t)$, $\psi(x,k,t)$ va $\bar{\psi}(x,k,t)$ orqali belgilaymiz va bu yechimlar (16) Zaxarov-Shabat sistemasining Yost yechimlari deb ataladi.

Yost yechimlari uchun quyidagi yoyilmalar o‘rinli:

$$\begin{aligned} \phi(x,k,t) &= b(k,t)\psi(x,k,t) + a(k,t)\bar{\psi}(x,k,t), \\ \bar{\phi}(x,k,t) &= \bar{a}(k,t)\psi(x,k,t) + \bar{b}(k,t)\bar{\psi}(x,k,t), \end{aligned}$$

bu yerda $a(k,t) = W(\phi, \psi)$, $\bar{a}(k,t) = W(\bar{\psi}, \bar{\phi})$, $b(k,t) = W(\bar{\psi}, \phi)$, $\bar{b}(k,t) = W(\bar{\phi}, \psi)$.

Oxirgi tenglikda $W(u, v)$ Vronskiy determinanti va u quyidagicha aniqlanadi:

$$W(u, v) = u^{(1)}v^{(2)} - u^{(2)}v^{(1)}.$$

3-ta’rif. Quyidagi

$$\tau(k,t) = \frac{1}{a(k,t)}, \quad \rho(k,t) = \frac{b(k,t)}{a(k,t)},$$

tengliklar bilan aniqlangan $\tau(k,t)$ funksiyaga o‘tish koeffitsiyenti va $\rho(k,t)$ funksiyaga esa qaytish koeffitsiyenti deyiladi.

Agar $r(x,t) = -q(x,t)$ bo‘lsa, u holda $a(k,t)(\bar{a}(k,t))$ funksiya yuqori(quyi) yarim tekislikda cheklita $k_j = \xi_j + i\eta_j$ ($\bar{k}_j = \bar{\xi}_j + i\bar{\eta}_j$), $j=1,2,\dots,N$ nollarga ega bo‘lib, ular (16) Zaxarov-Shabat sistemasining xos qiymatlaridan iborat bo‘ladi va quyidagi tengliklar o‘rinli bo‘ladi:

$$\begin{aligned} \phi_j(x,t) &= \chi_j(t)\psi_j(x,t), \quad \bar{\phi}_j(x,t) = \bar{\chi}_j(t)\bar{\psi}_j(x,t), \\ C_j(t) &= \frac{\chi_j(t)}{a'_j(t)}, \quad \bar{C}_j(t) = \frac{\bar{\chi}_j(t)}{\bar{a}'_j(t)}, \end{aligned}$$

bu yerda $\chi_j(t) = \chi(k_j, t)$, $\dot{a}_j(t) = \left. \frac{da(k,t)}{dk} \right|_{k=k_j}$.

4-ta’rif. Ushbu jamlanmaga

$$\{\rho(k,t), k \in \mathbb{R}, k_j(t), C_j(t), j=1,2,\dots,N\},$$

(16) Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining berilganlari deyiladi.

(16) Zaxarov-Shabat sistemasi uchun qo'yilgan sochilish nazariyasi teskari masalasining asosiy integral tenglamalar sistemasi quyidagicha bo'ladi:

$$\mathbf{N}(x,k,t) = \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} - \sum_{j=1}^N \frac{C_j(t)e^{2ik_jx}}{k+k_j} \sigma^{-1} \mathbf{N}_j(x,t) + \frac{1}{2\pi i} \int_{-\infty}^{\infty} \frac{\rho(\xi,t)e^{2i\xi x}}{\xi+k+i0} \sigma^{-1} \mathbf{N}(x,\xi,t) d\xi, \quad (17)$$

$$\mathbf{N}_\ell(x,t) = \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} - \sum_{j=1}^N \frac{C_j(t)e^{2ik_jx}}{k_\ell+k_j} \sigma^{-1} \mathbf{N}_j(x,t) + \frac{1}{2\pi i} \int_{-\infty}^{\infty} \frac{\rho(\xi,t)e^{2i\xi x}}{\xi+k_\ell} \sigma^{-1} \mathbf{N}(x,\xi,t) d\xi, \quad (18)$$

bu yerda $\mathbf{N}(x,k,t) = (N^{(1)}(x,k,t), N^{(2)}(x,k,t))^T$, $\mathbf{N}(x,k_\ell,t) = \mathbf{N}_\ell(x,t)$,
 $\ell=1,2,\dots,N$,

$$\sigma^{-1} = \begin{pmatrix} 0 & -1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix}.$$

(16) Zaxarov-Shabat sistemasining koeffitsiyenti $q(x,t)$ sochilish nazariyasining berilganlari orqali quyidagicha aniqlanadi:

$$q(x,t) = 2i \sum_{j=1}^N e^{2ik_jx} C_j(t) N_j^{(2)}(x,t) - \frac{1}{\pi} \int_{-\infty}^{\infty} \rho(\xi,t) e^{2i\xi x} N^{(2)}(x,\xi,t) d\xi. \quad (19)$$

Bu bobning ikkinchi paragrafida esa quyidagi

$$q_t + \Omega_f(L^A) q_x = 0, \quad x \in \mathbb{R}, \quad t > 0, \quad (20)$$

Riss kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Kortevog-de Friz-sinus-Gordon tenglamasini mazkur

$$q(x,0) = q_0(x), \quad x \in \mathbb{R}, \quad (21)$$

boshlang'ich shart bilan qaraymiz. Bu yerda $p_1, p_2 \neq 0$ o'zgarmas sonlar va

$$\Omega_f(L^A) = \left(p_2 (4L^A)^{-1} - 4p_1 L^A \right) \cdot |4L^A|^\epsilon, \quad (22)$$

$$L^A = -\frac{1}{4} \frac{\partial^2}{\partial x^2} - q^2 - q_x I_-, \quad I_- = \int_{-\infty}^x dy.$$

5-ta'rif. Agar $q(x,t)$ funksiya $(a,b) \subseteq \mathbb{R}$ oraliqda aniqlangan silliq funksiya bo'lsa, u holda $q(x,t)$ funksiyaning ϵ tartibli Riss kasr tartibli hosilasi quyidagi tenglik bilan aniqlanadi:

$$\left(-\partial_x^2 \right)^\epsilon q(x,t) = \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^{\infty} \hat{q}(k,t) |k|^{2\epsilon} e^{ikx} dk,$$

bu yerda $\hat{q}(k,t) = \int_{-\infty}^{\infty} q(x,t) e^{-ikx} dx$, $\hat{q}(k,t)$ funksiya $q(x,t)$ funksiyaning Furye almashtirishi.

Boshlang'ich shartdagi $q_0(x)$ funksiya quyidagi xossalarga ega:

$$1. \int_{-\infty}^{\infty} (1+|x|) |q_0(x)| dx < \infty,$$

2. $H(0) = i \begin{pmatrix} \frac{d}{dx} & -q_0(x) \\ -q_0(x) & -\frac{d}{dx} \end{pmatrix}$ operator yuqori yarim tekislikda N ta $k_1(0), k_2(0), \dots$

, $k_N(0)$ xos qiymatlarga ega va spektral maxsusliklarga ega emas.

(22) tenglamada keltirilgan $\Omega_f(L^A)$ ifodani aniqlashda Ablovitz, Bin va Carrlar ishida keltirilgan algoritmi qo'llab, ya'ni Riss kasr tartibli hosilali chiziqli modifitsirlangan Korteveg-de Friz-sinus-Gordon tenglamasining

$$u_{xt} + (-\partial_x^2)^\epsilon (p_1 u_{xxx} - p_2 u) = 0, \quad (23)$$

dispersiya munosabatidan foydalanamiz. Buning uchun $u(x,t) = e^{i(kx - \omega(k)t)}$ ifodani (23) tenglamaga qo'yamiz va natijada quyidagi dispersion munosabatga ega bo'lamiz:

$$\omega(k) = \left(\frac{p_2}{k} - p_1 k^3 \right) |k|^{2\epsilon}.$$

Ushbu

$$\Omega_f(k^2) = \frac{\omega(2k)}{2k},$$

tenglikni e'tiborga olsak, $\Omega_f(L^A)$ ifoda (22) ko'rinishda bo'lishi kelib chiqadi.

5-teorema. Agar $q(x,t)$ funksiya Riss kasr tartibli hosilali modifitsirlangan Korteveg-de Friz sinus-Gordon tenglamasiga qo'yilgan Koshi masalasi, ya'ni (20)-(21) masalaning yechimi bo'lsa, u holda (16) Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasi berilganlarining vaqt bo'yicha evolyutsiyalari quyidagi differensial tenglamalarni qanoatlantiradi:

$$\begin{aligned} \frac{\partial \rho(k,t)}{\partial t} &= -2ik \Omega_f(k^2) \cdot \rho(k,t), \quad k \in \mathbb{R} \setminus \{0\}, \\ \frac{dk_j(t)}{dt} &= 0, \quad j=1,2,\dots,N, \\ \frac{dC_j(t)}{dt} &= -2ik_j \Omega_f(k_j^2) \cdot C_j(t), \quad j=1,2,\dots,N, \end{aligned}$$

bu yerda $\Omega_f(k^2) = \left(\frac{p_2}{4k^2} - 4p_1 k^2 \right) |2k|^{2\epsilon}$.

Olingan natijalar sochilish nazariyasining vaqt bo'yicha evolyutsiyalarini to'liq aniqlab, (17) tenglamani quyidagi algoritm asosida yechish imkonini beradi.

Bizga $q(x,0)$ berilgan bo'lsin.

Dastlab berilgan $q(x,0)$ boshlang'ich shart orqali (16) sistemaning $t=0$ dagi sochilish nazariyasining berilganlarini(SNB) topamiz:

$$\{\rho(k,0), k \in \mathbb{R}, k_j(0), C_j(0), j=1,2,\dots,N\},$$

$t=0$ paytidagi SNB ni boshlang'ich shart sifatida olib, 5-teoremadagi differensial tenglamalarni yechib, $t > 0$ paytidagi SNB ning vaqt bo'yicha evolyutsiyalarini keltirib chiqaramiz:

$$\{\rho(k,t), k \in \mathbb{R}, k_j(t), C_j(t), j=1,2,\dots,N\}.$$

3. Topilgan SNB yordamida (17) va (18) integral tenglamalar sistemasini yechish orqali $N_j^{(2)}(x,t)$, $j=1,2,\dots,N$ funksiyalarni aniqlaymiz;

4. (19) tenglikdan foydalanib $q(x,t)$ funksiya topiladi;

5. Nihoyat, $q(x,t) = \frac{1}{2}u_x(x,t)$ tenglikga ko'ra, (20) tenglamaning $u(x,t)$ yechimi aniqlanadi.

5-misol. (20) tenglamani quyidagi

$$q(x,0) = \frac{2}{ch(2(x-x_0))},$$

boshlang'ich shart bilan qaraymiz. Yuqoridagi keltirilgan algoritm yordamida $q(x,t)$ funksiyaning topamiz:

$$q(x,t) = \frac{2}{ch\left(2(x-x_0) - 2\left(4p_1 - \frac{p_2}{4}\right) |2|^{2\epsilon} t\right)},$$

$q(x,t) = \frac{1}{2}u_x(x,t)$ tenglikga ko'ra, (20) tenglamaning $u(x,t)$ yechimi quyidagicha bo'ladi:

